TAKRORIY EKIN SIFATIDA YETISHTIRILADIGAN KUNGABOQARNING XALQ XO’JALIGIDAGI AXAMIYATI, KELIB CHIQISHI, TARQALISHI, HOSILDORLIGI

Xabibullayev Xoljo‘ra Abduxalil o‘g‘li
Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti doktoranti
Shaxnoza Xudoyberdiyeva Davlatovna
Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti doktoranti
Mirzabdullaev G’olibjon Nurali o’g’li
Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

Annotasiya: Kungaboqar moyi asosan oziq-ovqatda qo’llaniladi. U sariq rangli, tiniq yarim quriydigan, urug’ tarkibida 29-50% moy va 15% oqsil bo’ladi. Moy tarkibida 62% gacha biologik faol mekol kislotasi va vitaminlardan A,D,E,K fosfatorlar mavjud. Kungaboqar moyi margarin, mayonez, baliq va sabzavot konservalari, qandolat maxsulotlari ishlab chiqarishda, lok, bo’yoq, sovun tayyorlashda ishlatiladi. Ushbu maqolada kungaboqarning o’sishi va rivojlanishi xalq xo’jaligidagi axamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, hosildorligining ahamiyati bayon qilingan.

Tayanch so’zlar; chaqiladigan kungaboqar, moyli kungaboqar, oraliq kungaboqar, suv va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalar, o’suv davri davomiyligi issiqlikka, unib chiqish dinamikasi, vegetatsiya

Kirish

Kungaboqar –murakkabguldoshlar oilasiga mansub bir yillik o’simlik, asosiy moyli ekinlardan biri. Vatani – Shimoliy Amerika. YOvvoyi holda o’sadigan kungaboqarni ispanlar yevropaga 1510 yilda keltirganlar. Dastlab manzarali o’simlik sifatida ekilgan.

Ildizi o’q ildiz, yaxshi rivojlangan, poyasi tik o’sadi, dag’al, yuqori qismi shoxlanadi, bo’yi 4 m ga boradi. Bargi oddiy, yirik, ketma-ket joylashgan, dag’al

tuklar bilan qoplangan. To’pguli savatcha (diametri 35–40 sm) ko’rinishida bo’ladi. Savatcha markazidagi gullar yoysimon, ikki jinsli, chetdagilari qizg’ish-sariq, tilsimon bo’ladi. CHetdan changlanadi. Mevasi – pista, 4 qirrali, rangi oq, kulrang, qora tusda bo’ladi.

Kungaboqar urug’ining kattaligiga, moyining miqdoriga va mag’zining chiqishiga qarab 3 guruhga bo’linadi:

▪ **Moyli kungaboqar** – pistasi mayda, 1000 donasining vazni 35–80 g, mag’zi tarkibida 53–63% moy bor.

▪ **Chaqiladigan kungaboqar** – pistasi yirik, 1000 donasining vazni 100–170 g, mag’zining tarkibida 20–35% moy bo’ladi, poyasidan silos ham bostiriladi.

▪ **Oraliq kungaboqar** – hamma ko’rsatkichlari o’rtacha bo’ladi.

Kungaboqar urug’i 4–6°S haroratda 10–15 kunda unib chiqadi. Maysasi – 6°S sovuqqa bardoshli (qisqa qorasovuqlarga chidaydi). Issiqlikka talabchan, yorug’sevar, qisqa kunli, qurg’oqchilikka chidamli, namsevar o’simlik. Soya joyda yaxshi rivojlanmaydi. O’suv davri 80–140 kun bo’ladi. Ozuqaga talabchan, 1 tonna pista va poyabarg hosil qilishi uchun 50–60 kg azot, 20–25 kg fosfor, 120–160 kg kaliy talab qiladi. Kungaboqardan, asosan, ovqatga ishlatiladigan kungaboqar moyi olinadi. Silosbop navlaridan silos bostiriladi, chiqindilaridan shrot olinadi. Kunjarasidan chorva mollariga yuqori sifatli ozuqa sifatida foydalaniladi. Kungaboqar erta bahorda tuproq harorati 8–12°S ga yetganda va takroriy ekin sifatida kuzgi bug’doy va arpadan keyin ekiladi. Ekishdan oldin yer tekislanadi. yer haydashdan oldin go’ng (20 t/ga), azotli, fosforli va kaliyli o’g’itlar solinadi. Ekish uchun mahalliylashtirilgan navlar urug’i keng qatorlab va punktir usulda 5–8 sm chuqurlikda ekiladi. Sug’oriladigan maydonlarda ko’chat qalinligi 60 ming tup/ga bo’lishi lozim (1 ga maydonga pista uchun 5–8 kg, silos uchun 35–40 kg urug’lik sarflanadi).

Kungaboqar urug’i ekishdan oldin zararkunanda va kasalliklarga qarshi dorilanadi. Ekishda makkajo’xori ekiladigan seyalkalardan foydalaniladi. O’suv davrida qator orasi 2–3 marta kultivatsiya qilinadi, 5–6 marta sug’oriladi. Gullash davrida ekinzorda asalari uyalari qo’yilsa kungaboqar gullari yaxshi changlanadi.

Gullash davrida ko’p suv talab qiladi. Sug’orish me’yori 600–800 m3/ga. Kungaboqarning yetilganligini savatining sariq-jigarrangga kirganligiga qarab aniqlash mumkin. Hosil don kombaynlarida maxsus moslama bilan o’rib olinadi.

Navlari: O’zbekistonda VNI-IMK 8931, CHkalov giganti navlari ekiladi.

Zararkunandalari: simqurtlar, soxta simqurtlar, kungaboqar kapalagi, kemiruvchi tunlamlar va boshqalar.

Kasalliklari: oq chirish, kulrang chirish va boshqalar, begona o’tlardan shumg’iya juda zararlidir.

Kungaboqar moyi asosan ozi—ovqatda qo’llaniladi. U sariq rangli, tiniq yarim quriydigan, urug’ tarkibida 29-50% moy va 15% oqsil bo’ladi. Moy tarkibida 62% gacha biologik faol mekol kislotasi va vitaminlardan A,D,E,K fosfatorlar mavjud. Kungaboqar moyi margarin, mayonez, baliq va sabzavot konservalari, qandolat maxsulotlari ishlab chiqarishda, lok, bo’yoq, sovun tayyorlashda ishlatiladi. Moy olingandan keyin qoladigan chiqindilari shrot va kunjara chorva mollarga yuqori sifatli oziqa xisoblanadi. Kungaboqar vatani SHimoliy Amerikaning Janubiy tumanlari bo’lib, Ovro’paga XI-asrning boshlarida keltirilgan. Dastlab kungaboqar manzarali o’simlik sifatida ekilgan. Ilk kungaboqar moyli 1835 yili Rossiyada ishlab chiqilgan. yer yuzida kungaboqar 18,3 mln ga yerga ekiladi. Rossiyada 3,13 mln gektar yerga ekiladi. Kungaboqar ko’proq Orgentina, Kanada, Xitoy, Ispaniya, Turkiya, Ruminiya, Ukrainada, ekiladi.

Kungaboqar almashda ekishda kuzgi va bohorgi boshoqli donli o’simliklarni o’rniga ekiladi. yerga ishlov berishda qo’yiladigan asosiy talab ko’p yillik begona o’tlardan tozalash, tekislash namni saqlashdan iborat. Ekishdan oldin yer tekislanadi, 8-10 sm chuqurlikda kultivatsich qilinadi va berona, mola bostiriladi.

O’g’itlash. yer xaydashdan oldin organik va fosforli, kaliy o’g’itlar solinadi. Organik o’g’it sifatida 15-20 t\ga,45-60 kg don fosfor va kaliy va ekish bilan birga 10-15 kg NPK beriladi. Kungaboqar ertagi bu muddatlarda va erta pishar Alvaorini takroriy ekin sifatida ekish mumkin. Umumiy o’rtacha urug’ olish uchun gektorga 5-8 kg, silos dalerlash uchun 3-40 kg urug’ ekish lozim, ekish chuqurligi 6-10 sm, qator orasi 70 sm qilib maxsus seyalkalarda ekiladi. Ekinlarni parvarish qilish qatqaloqa

qarshi kurash 2-3marta sug’orishdan iborat. Xosilni kungaboqar savatlari 60-65% qorayganda yig’ib olinadi. Xosil don kombayinlarida maxsus moslamalar o’rnatib yig’ib olinadi.

Foydalanilgan aadabiyotlar:

1. Amanova M.E, Rustamov A.S Kungaboqar va uning istiqbolli namunalari». O’zbekiston agrar fani xabarnomasi 2004 yil №2 (16);

2. Baymanov A.S. Priyemi polucheniya visokokachestvennix semyan gibridov podsolnechnika v Zapadnoy Sibiri// Nauch.-texn. byul. VNII masl. kultur 2008.№2. S. 4-7,90.

3. Amanova M. Kungaboqar urug’chiligining muhim jihatlari//J.Agro Ilm. 2014.№1 (22). B. 31-32.

Internet ma’lumotlari:

1 https://agronet.uz

2 https://agronet.uz/makkajoxori-yetishtirish/.

3 https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kungaboqar-uz./